

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TURKIY TILLAR KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: Turk tilida adabiyotshunoslik terminlarining semantik-struktur
tahlili**

Tayyorladi: 5220100 –Filologiya
(Sharq tillari)

Turkiy tillar kafedrası bitiruvchi
kurs talabasi

Kadirova Feruza Alisherovna_____

Ilmiyrahbar:Filologiya fanlari
doktori,akademik

Alibek Rustamov_____

Turk tilidagi adabiyotshunoslik atamalarining asosiylari va eng ko`p uchraydiganlari jamlanadi va turk tilida ijod qilgan va qilayotgan adiblar ijodidan keltirilgan misollar bilan ko`rsatib beriladi.

Toshkent – 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. Turk tilida she`riy san`atlar va vaznlarga oid adabiyotshunoslik atamalarining semantik-struktur tahlili.....	
1.1. She`riy san`atlarga oid atamalarning semantik-struktur tahlili.....	11
1.2. Turk adabiyotshunosligida she`riy vaznlar va ularning semantik-struktur tahlili.....	23
II BOB. Turk tilida she`riy va badiiy turlarga oid adabiyotshunoslik atamalarining semantik-struktur tahlili.....	29
2.1. She`riy turlarga oid atamalarning semantik-struktur tahlili.....	29
2.2. Badiiy turlarga oid atamalarning semantik-struktur tahlili.....	37
XULOSA.....	42
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	45

KIRISH

Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor!
“Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning etangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”¹.
(Islom Karimov)

Badiiy adabiyotni o'rganuvchi fan *adabiyotshunoslik* deb ataladi. Bu fanning vazifalari va mazmuni haqida tasavvur hosil qilish uchun dastavval «adabiyot» terminining mazmunini aniqlab olmoq lozim.

«Adabiyot» termini ikki ma'noda ishlatiladi. Keng ma'noda umuman kitoblar, broshyuralar, maqolalar, ya'ni ko'pchilikning o'qishi uchun yozilgan va bosib chiqarilgan (bosmaxona kashf etilishidan avval – qo'l yozmalar holida e'lon etilgan) asarlar ko'zda tutiladi². Bu ma'nodagi adabiyot o'zi yana turli sohalarga bo'linadi. Masalan, *qishloq xo'jaligi adabiyoti* - qishloq xo'jaligi masalalariga, bag'ishlangan asarlar, *iqtisodiy adabiyot* -ekonomika masalalariga oid asarlar, *texnika adabiyoti*, *siyosiy adabiyot* va hokazo.

«Adabiyot» so'zi jahon fanida tor va maxsus ma'noda XVIII- XIX asrlarda paydo bo'ldi. Undan avval badiiy adabiyot ko'pincha boshqa adabiyotlardan farq etilmay, «adabiyot» termini, umuman ko'pchilikning o'qishi uchun yaratilgan asarlar ma'nosida ishlatilar edi. Dunyodagi bir qancha xalqlar tilida literature («literatura») termini bilan ifoda etilayotgan bu tushuncha aslida lotincha litega («littera»), ya'ni «harf» so'zi asosida tuzilgandir. Rossiyada XIX asrda ham tor va maxsus ma'nodagi «literatura» termini o'rnida «poeziya» termini ishlatilar, ya'ni faqat she'r bilan yozilgan asarlargina emas, balki umuman, badiiy so'z namunalari (shu jumladan, romanlar ham) «poeziya» deb atalar edi³.

¹ Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oily maqsadimiz, Karimov Islom, T., 2009,247-b

² Adabiyotshunoslik asoslari, Boboyev To'xta, T., “O'zbekiston”- 2002

³ Adabiyotshunoslik asoslari, Boboyev To'xta, T., “O'zbekiston”- 2002

Turkiy tilda yozilgan «Qutadg`u bilig» dostonida esa (Yusuf Xos Hojib asari, XI asr) badiiy bayon ustun turgani holda, podshoh saroyida vazirlik qilish uchun qanday fazilatlarga ega bo`lish, olim bo`lish uchun qanday ish ko`rish, chet ellarda mamlakat vakili bo`lish uchun nimalarni bilish kerakligi kabi masalalarga oid maxsus boblar ham bor. Shu bilan birga, O`rta asrlarda hozirgi ma`noda sof badiiy asar deb atalishi lozim bo`lgan asarlar ham (masalan, Firdavsiyning «Shohnoma»si, Navoiyning «Xamsa»si) ko`p uchraydi. Ba`zi buyuk badiiy asarlarda esa (masalan, Navoiyning «Xamsa»sida) badiiy, axloqiy va ilmiy mavzular sirasi yoritiladi, ya`ni adabiyotning vazifalarini badiiy adabiyot, ilmiy adabiyot, axloqiy adabiyot vazifalariga bo`lib, alohida asarlarda yoritilmaydi. «Xamsa»da so`z (ya`ni badiiy adabiyot) ning xususiyatlari hamda vazifalari haqidagi va makedoniyalik Iskandarning tarjimaiy holiga oid ilmiy ma`lumotlarni ham, tabiatning turli hodisalari haqidagi izohlarni va Movarounnahrning geografiyasini ham, shu bilan birga, hayot haqidagi to`la badiiy dostonlarni ham uchratamiz. O`rta asrlar adabiyotining ana shu xususiyati sharofati bilan «Qobusnoma», «Qutadg`u bilig» va «Xamsa» kabi asarlar o`z zamonasining qomusi bo`lib qoldilar. Usha davr olimlari ham O`rta asrlarning bu keng ma`nodagi adabiyotini butunisicha olib tekshirganlar. Masalan, XV va XVI asr olimlari - Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Haydarlar buyuk shoir va olim Alisher Navoiy haqida yozar ekanlar, uning asarlarini «badiiy» va «ilmiy» terminlar bilan boshqa-boshqa bo`laklarga bo`lmay, butunicha olib, «musannafot» (arabcha, «yozilgan narsalar», «asarlar») termini bilan sanab o`tdilar. Ular shoir ijodini «adabiyot» so`zi bilan birlashtirmay, badiiy asarlarning turlariga bo`lib qayd etganlar. Masalan, «Boburnoma»da Alisher Navoiy ijodiga quyidagicha ta`rif beriladi: «Alisherbek naziri yo`q kishi erdi. Turkiy til bilan to she`r aytubturlar, hech kim oncha ko`p va xo`b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana bir «Mantiqut-tayr» vaznida, «Lisonut-tayr» otliq. To`rt g`azaliyot devoni tartib qilibtur... Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana ba`zi musannafoti borkim, bu mazkur bo`lg`onlarga boqa pastroq va sustroq voqe` bo`libtur».

Bundan tashqari, Sharq olimlari she`riy asarlarni «nazm», «manzuma», «abyot» yoki hozirgi davrda mashhur «she`r» lug`atlari bilan atab, ularni «nasr» (she`rga solinmagan oddiy so`z) dan farq etganlar.

Ular yana she`riy ijod, badiiy asarlar yaratish usullari haqida butun bir ta`limot maydonga keltirganlar va ko`pincha shu ta`limotning o`zini «adabiyot» deb ataganlar.

«Adabiyotshunoslik» termini ikki so`zdan iborat bo`lib, uning tarkibidagi - «shunos» qo`shimchasi o`zbek tiliga fors-tojik tillaridan kirgan va «biluvchi», «o`rganuvchi» ma`nolarida ishlatiladi. (Aslida bu qo`shimcha «shinoxtan», ya`ni «bilish», «tayin etish» fe`ldan yasalgan bo`lib,—«shinos» yozilishi kerak bo`lsa ham, talaffuzda — «shunos» shakliga kirib ketgan.)

Adabiyotshunoslik - badiiy adabiyot haqidagi fandır. Ruscha «Qisqa adabiy ensiklopediya»ning to`rtinchi tomida «literaturovedenie» («adabiyotshunoslik») so`ziga berilgan quyidagi ta`rifni qabul etilgan ta`rif deb hisoblash mumkin. «Adabiyotshunoslik - badiiy adabiyotni, uning mohiyatini, kelib chiqishini va ijtimoiy aloqalarini har taraflama o`rganuvchi fandır; so`z orqali badiiy fikrlashning o`ziga xos xususiyatlari haqidagi, badiiy ijodning genezisi (negizi, zamini), strukturasi (tuzilishi), tarixiy-adabiy jarayonning lokal (ma`lum joy va davrga oid) va umumiy qonunlari haqidagi bilimlar jamidir; bu so`zning torroq ma`nosini olganda, adabiyotshunoslik-badiiy adabiyotni va ijodiy jarayonni o`rganishning prinsiplari va metodlari haqidagi fandır».

Bu ta`rifning uzun va tarqoqligi adabiyotshunoslikda ko`p tushunchalarga aniq va ixcham ta`riflar hali topilmaganini ko`rsatadi. Ma`lumki, murakkab hodisalarga sodda va har taraflama ta`riflar berish juda mushkul ish. Shuning uchun har qanday ta`rif ham ma`lum darajada shartlidir. Qisqa qilib aytganda, adabiyotshunoslik - badiiy adabiyot va uning jamiyat hayotidagi o`rni haqidagi fandır.

«Adabiyot» tushunchasining ma`nosini to`laligi bilan ochib berish uchun, avvalo, adabiyotning bir necha muhim, eng ko`zga tashlanadigan va hamma tomonidan tan olingan xususiyatlarini ko`zdan kechirish lozim. Bu xususiyatlar uchta bo`lib, V. G. Belinskiy tomonidan «adabiyot» terminini talqin etish

munosabati bilan, uning «Adabiyot soʻzining umumiy maʼnosi» nomli maqolasida taʼriflangan.

V. G. Belinskiy taʼrificha, «adabiyot» doimo ommaviylikka suyanadi, oʻz tasdiqini jamiyat fikridan oladi», u «faqat bilimdonlarning... yoki mumtoz havaskorlarning... kichik doirasi eʼtiboridan emas, balki butun xalqdan, eng kamida - xalqning maʼrifatli sinflarining eʼtiboridan madad oladi. Adabiyot butun jamiyatning mulkidir». Bu maqolada Belinskiy «ommaviylik» terminini omma ongini inʼikos eta biluvchilik maʼnosida ishlatadi.

Haqiqatan ham, adabiyot jamiyatning hamma tabaqalariga moʻljallangan boʻladi va odamlarning yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy pogʻonada tutgan oʻrniga qaramasdan, hamma tomonidan oʻqiladi, har bir kishida qiziqish tugʻdiradi. Bugina emas, bir xalqda yaratilgan adabiyot asarlari boshqa xalqlarning ham barcha vakillari tomonidan qiziqib oʻqiladi, jahondagi odamlarning hammasida (ularning irqiy, milliy, diniy, iqlimiy farqlaridan qatʼi nazar) qiziqish tugʻdira oladi, hamma kishilarga foyda yetkazadi, butun insoniyatning mulki boʻlib qoladi. Qadim yunon adabiyoti «butun insoniyatning mulkidir».

Bir xalq adabiyotining butun insoniyat va uning tarixi uchun ahamiyati qanchalik zoʻr boʻlishini rus adabiyoti misolida ham koʻrish mumkin. XIX va XX asr rus klassik adabiyoti olamdagi hamma xalqlar madaniyatiga juda zoʻr hissa boʻlib kirdi, jahon adabiyotining taraqqiyot yoʻllarini koʻp jihatdan tayinlab berdi. Bu jihatdan buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy ijodi juda xarakterlidir. L. N. Tolstoy krepostnoy huquq zamonidayoq ulugʻ sanʼatkor boʻlib maydonga keldi... L. Tolstoy Rossiyaning tarixiy hayotidagi shu pallani tasvirlar ekan, oʻz asarlarida shu qadar katta masalalarni maydonga qoʻya oldiki, badiiy kuchi jihatidan shu daraja balandga koʻtarildiki, uning asarlari jahon badiiy adabiyotida birinchi oʻrinlardan birini egalladi.

Adabiyoti taraqqiy topgan har bir Xalqning yutuqlari tezda butun jahon miqyosiga chiqadi, hamma mamlakatlar va xalqlar tomonidan eng keng miqyosda qabul etiladi. «Keling, Alisher Navoiydek shoir boʻlgani uchun quvonaylik. Bizga shunday shoirni armugʻon qilgan oʻzbek xalqiga katta rahmat aytaylik,— degan akademik N. I. Konrad.- Navoiyni faqat oʻrganmasdan, tadqiq

etmasdan, o`qib ham yuraylik. Faqat o`qibgina qolmasdan, uning haqida o`ylab ham yuraylik».

Adabiyotning butun insoniyat madaniyati bilan chambarchas bog`lanib ketgani uning bu qadar keng ommaviyligini ta`min etuvchi sabablardan biridir. «Alisher Navoiyning azamat siymosi jahon adabiyotidan ajrab qolgan emas,— deb yozgan edi mashhur rus olimi V. M. Jirmunskiy,— o`zbek adabiyotining buyuk asos soluvchisining ijodi o`zining g`arbiy hamfikrlari — Renessansning shoirlari va mutafakkirlarining g`oyalari bilan bevosita hamohangdir».

Har bir xalqning vakillari tomonidan yaratilgan asarlarning butun insoniyat tomonidan qabul etilishida adabiyotning ana shu xususiyati — ommaviylik yana ham yaqqol ko`rinadi. O`zbekiston tarixi, geografiyasi va undagi tabiiy boyliklardan yoki unda fanning taraqqiyotidan ma`lumot beruvchi asarlar butun jahon o`quvchilarining ma`lum qisminigina qiziqtirishi mumkin. Ammo Navoiy, Hamza, A. Qodiriy va Oybek yaratgan badiiy adabiyot namunalari turli geografik mintaqada yashovchi o`quvchilarda qiziqish tug`dira oladi. Shuning uchun ham o`zbek adabiyoti asarlarining yer yuzidagi juda ko`p tillarga tarjima etilgani bejiz emas.

Adabiyotning ommaviyligi ana shunday cheksizdir.

Adabiyotning ikkinchi xususiyati — uning ma`lum shaxslar, talant egalari tomonidan yaratilishidir. Bu jihatdan yozma adabiyot xalqning og`zaki ijodidan farq qiladi. Og`zaki ijodga mansub asarlarning yaratuvchisi noma`lum. Aslida ular xalqning kollektiv ravishdagi ijodiy mahsulidir. Adabiyotda esa har bir asarni ma`lum shaxslar yaratadi. Hatto adabiy ijodning eng ushoq shakli aforizm (hikmatli so`zlar)ni ham kim yaratgani aniq. (Masalan, Navoiy aforizmlarini bilamiz.) Vaholanki, xalq ijodida bu ijodiy shakl «maqol», «matal» yoki bo`lmasa «otalar so`zi» nomi bilan yuritiladi, uning yaratuvchisi noma`lum, to`g`rirog`i butun xalqdir. Belinskiy ta`rificha, adabiyotni yaratuvchilar «xalq emas, balki ayrim shaxslar bo`lib, ular o`zlarining aqliy faoliyatlari bilan xalq ruhining turli tomonlarini aks ettiradilar». Yaratuvchining hamma xususiyatlari adabiyot asarlarida. O`z izini qoldiradi. «Adabiyotda shaxs o`zining butun huquqiga ega bo`ladi va adabiy davrlar doimo shaxslarning nomlari orqali

namoyon qilinadi». Haqiqatan ham, o'zbek klassik adabiyotining shakllanishi Lutfiy, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy kabi ulkan yozuvchilarning nomlari bilan bog'liqdir. Qozoq adabiyoti deganimizda, dastavval Abay va Avezov, ozarbayjon adabiyoti deganimizda — Fuzuliy, Voqif, Sobir, S. Vurg'un, rus adabiyoti deganimizda — Pushkin, Lermontov, Dostoyevskiy, L. Tolstoy va M. Gorkiy, tojik adabiyoti deganimizda — Rudakiy, Firdavsiy, Jomiy, Sa'diy, S. Ayniy kabi konkret shaxslar ko'z oldimizga keladi va hokazo.

Adabiyotning uchinchi xususiyati — badiiylkdir, ya'ni hayotning unda obrazlar orqali in'ikos etishidir. «Adabiyot to'g'risida gapirar ekanmiz,— deydi V. G. Belinskiy,— biz dastavval go'zal adabiyotni — poetik, badiiy- asarlar doirasini ko'zda tutamiz». Bu xususiyati jihatidan adabiyot fandan farq qiladi va san'atga (rassomlik, muzika va shunga o'xshashlarga) yaqinlashadi.

Shunday qilib, ommaviylik, yaratuvchi shaxsning aniqligi va badiiylk «adabiyot» termini bilan ataluvchi madaniy hodisaning muhim xususiyatlaridandir.

Adabiyotning Belinskiy tomonidan belgilangan ana shu juda muhim uch xususiyati adabiyot haqidagi fanning bo'lishini zarur qilib qo'yadi va bu fanning yo'nalishini ham tayin etadi. Adabiyotshunoslik va shu fanning bir qismi bo'lgan adabiyot nazariyasi, asosan uch problema doirasini o'rganadi: adabiyotning ijtimoiy ahamiyati, adabiyotni yaratishda ijodkor shaxsning roli (talant, badiiy mahorat, adabiy ijod shakllarining xususiyati ekanini (badiiy adabiyotning spesifikasini) aniqlaydi. Bular adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasining bosh vazifalaridir.

Mavzuning dolzarbligi. Turk tilida adabiyotshunoslik atamaları turk adabiyotshunosligining asosiy sohalaridan biri bo'lishiga qaramay, turk tili adabiyotshunoslik atamalariga doir ko'pgina muammolar hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois, mazkur qismlarni o'rganishda biz – talabalar nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdamiz. Bu, ayniqsa, turk tilidagi adabiyotshunoslik atamalarini tahlil va tavsif etishda yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Turk tilida adabiyotshunoslik atamalarining xususiy jihatlarini atroflicha o'rganmay turib, uning umumiy tomonlari haqida fikr yuritish ham qiyin. Ammo bu adabiyotshunoslik atamalarini mukammal o'rganishni taqozo etadi.

Bu mavzu o'zbek tilida umuman o'rganilmagan. Biroq turk adabiyotshunoslari tomonidan bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Bunga Turan Karatash ning 'Ansiklopedik edebiyat terimlari sözlüğü', Okan Koch 'Ansiklopedik edebiyat terimlari sözlüğü', Nurettin Albayrakning 'Ansiklopedik edebiyat terimlari sözlüğü', Ahmet Hamdi Tanpınar, Jevdet Kudretlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Tadqiqot manbai. Tadqiqotga manba sifatida hozirgi va mumtoz turk tilida ijod qilgan ko'zga ko'ringan adiblarning bir qancha asarlari, shuningdek, internet saytlari olindi.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi turk tilidagi adabiyotshunoslik atamalarini atroflicha o'rganish va tahlil qilish.

Ishdagi ilmiy yangiliklar. Turk tilidagi adabiyotshunoslik atamalarining asosiylari va eng ko'p uchraydiganlari jamlandi va turk tilida ijod qilgan va qilayotgan adiblar ijodidan keltirilgan misollar bilan ko'rsatib berildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Turk tilidagi adabiyotshunoslik atamalarining o'rganilishi kelgusida qilinadigan ishlar uchun zamin hozirlaydi. Bu ish foydalanuvchiga, turk tilidagi adabiyotshunoslik atamalari bilan tanishishi, uning u yoki bu atamani har jihatdan tahlil qilishi oson bo'ladi va eng muhimi adabiyotshunoslik atamalariga to'g'ri tavsif bera oladi. Shu bois, bu ish adabiyotshunoslik atamalarini tushinishga va ajrata olishga har bir foydalanuvchiga qulayliklar tug'diradi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi (qisqacha – BMI) kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida BMI to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Birinchi bobda turk tilidagi adabiyotshunoslik atamalarining semantik xususiyatlari haqida to'xtalib o'tildi va shu bilan bir qatorda turk adabiyotida mavjud bo'lgan vaznlar haqida qisqacha ma'lumot berildi. Ikkinchi bobda esa turk tilidagi adabiyotshunoslik

atamalarining struktur tahlili ko`rib chiqildi. Xulosa qismida BMIning mazmunidan kelib chiqqan holda, asosiy xulosalar berilib, ish oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirib o'tildi.

I bob

Turk tilida she`riy san`atlar va vaznlarga oid adabiyotshunoslik atamalarining semantik-struktur tahlili

1.1. She`riy san`atlarga oid atamalarning semantik-struktur tahlili

So`zning go`zal bo`lishining birinchi sharti tog`ri va lo`ndalikdir. Fasohat so`zning, so`z, ifoda, ohangiga ko`ra kamchiliksiz bo`lishidir. Balog`at esa so`zning lo`nda va chiroyli bo`lishi bilan birga vaziyatga va maqomga mos bo`lishidir. Ilm sifatida balog`at to`g`ri va o`z o`rnida so`z aytish qoidalarini o`rganadi. Balog`at “Maoniy”, “Bayon”, “Badiiy” kabi uch guruhga bo`linadi⁴.

Maoniy – so`zning o`z o`rnida to`g`ri qo`llangan yoki qo`llanilmaganligini o`rganuvchi ilmdir.

Bayon – so`z va ifoda aloqalarini o`rganadi. Har ikkalasining uyg`unligiga e`tibor beradi, ya`ni so`z va ifoda aloqasini tushuntirib beradi. Shu sababli, majoz, istiora, kinoya san`atlarini o`rgatadi. Bundan tashqari, bayon ilmi aytilayotgan ifoda tarzlarining qaysi biri adabiy ekanligi ustida to`xtaladi va asosan majozning haqiqatdan, istioraning tashbehdan, kinoyaning to`g`ridan to`g`ri so`zlashdan qaysi biri adabiy ekanligini tekshiradi. Bayon ilmining g`oyasi tuyg`u va tushunchalarni o`z o`rnida va o`z vaqtida qo`llay olish, adabiy asarlarni yanada yaxshiroq tushuntirishdir.

Badiiy esa ifoda va so`z bilan bo`g`liq bo`lib, san`atlar bilan so`zning nafosatini o`rgatadigan ilmdir.

Mullim Najiyning fikriga ko`ra nazm va nasrda ikki xil go`zallik bo`ladi:

1.Asliy go`zallik

2.Keyinchalik qo`lga kiritilgan go`zallik

Asliy go`zallikni maoniy va bayon yuzaga chiqaradi. Keyinchalik hosil qilingan go`zallikni esa badiiy aks ettiradi⁵.

Arab adabiyotida balog`at 4 davrga bo`lib o`rganiladi.

⁴ Divan šiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005

⁵ Divan šiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005

Birinchi davr. Qur'onning nozir qilinishidan X asrgacha bo'lgan davr. Bu davrda balog'at tafsir va kalom bilan birga qalamga olingan. Bu davrda asosiy maqsad Qur'onni yana ham yaxshiroq tushinish edi. Dastlab arablar Qur'onni bemalol tushinishgan. Vaqt o'tishi bilan keyingi avlodlar tushinishi qiyinlashdi.

Shu vaqt davomida boshqa millatlarning ham islom diniga kirishi va ularning Qur'onni yaxshiroq tushinishlari uchun har xil ishlar amalga oshirila boshlandi. Shu sababli XI asrdan keyin balog'at mustaqil ilm sifatida shakllana boshladi.

Ikkinchi davr. X asr oxiridan XIV asrning oxirigacha davom etgan davrdir. Bu davrda balog'atning qat'iy qoidalari va atamalari belgilab olindi.

Uchinchi davr. XIV asr oxiridan XIX asr oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr eskini takrorlash, turg'unlik davri sifatida ko'riladi. Yangi yozilgan asarlar sharh va hoshiya ya'ni eskilarni tushuntirib berish shaklida bo'lgan.

To'rtinchi davr. Bu davrda G'arb ta'siri sezila boshlandi. Bu davrda balog'atchilarning bir qismi G'arb ta'siridan foydalanib, yangilik yaratishga harakat qilgan bo'lsalar, yana bir qismi eski an'anani davom ettirishni xohladilar.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga ahamiyat qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy sanatkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki, sheriylar badiiy asarlarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazolati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, muammolar mohiyati va ko'lamini, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riylar san'atlarning rang-barangligini, mantiqiy asoslanishi, asar

mazmunini ochishdagi o`rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Mumtoz adabiyot tarixi yana shundan dalolat beradiki, she`riy san`atlar shoir badiiy salohiyatini ko`z-ko`z qilish, uning xilma-xil san`atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko`lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g`oyalarni jilolantirish san`atkorligi ifodasi bo`lib kelgan.⁶

Mübalâğa(mubolag`a )- arab tilida “kattalashtirish”, “kuchaytirish” ma`nosini bildirib, adabiy asarlarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo`rttirib, kuchaytirib ifodalash san`ati.

Mubolag`aning quyidagi turlari mavjud⁷:

**Tebliğ (tablig`)** – aqlan ishonish mumkin bo`lgan va hayotda ham yuz berishi mumkin bo`lgan mubolag`a.

Bahtım gibi tîre kefi ümmîd gibi teng

Çeşmim gibi pür-âb derûnum gibi vîrân (Nabiy)

(Baxtim kabi qora, umid qo`lim (ko`pik) kabi bo`sh

Ko`zim kabi yoshli, ko`nglim kabi vayron)

**İğrak (ig`roq)** – belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo`lsa ham, hayotda ro`y berishi mumkin bo`lmagan tarzda kuchaytirib, oshirib tasvirlash.

Yazılıp ermeye pâyânına dek name-i şevk

Hep ağaçlar kalem olsa kamu yaprak kâğıd (Najotiy)

(Butun boshli daraxtlar qalam, barcha barglar qog`ozlar bo`lsa ham, istak maktubimni yozishimga yetmaydi).

**Gulüv (g`uluvv)** – aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo`lmagan darajada bo`rttirib tasvirlash.

Öyle zaîf kıl tenimi fırkatinde kim

Vaslına mümkün ola yetürmek sabâ beni (Fuzuliy)

⁶ She`r san`atlarini bilasizmi? A. Hojiahmedov, T.2001, 4-b.

⁷ Divan šiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005, 140-b.

(Vujudimni shu darajada yengillashtirki, tonggi shabada meni uchirib olib keta olsin).

Hüsn-i Talil – Güzel Sebep Gösterme, (husni ta`lil-arabcha “chiroyli dalillash”)- haqiqiy sababini hamma biladigan biror bir hodisani shoirona chiroyli sabab bilan ko`rsatish san`ati.

Bâğ-ı âlemde yüzün mânendi bir gül isteyip

Cüst ü cû edip gezer gülzârı bülbül şâh şâh (Avniy)

(Bulbul gul bog`idan sening yuzingga o`xshash bir gul istagani uchun shoxdan shoxga uchib, izlab gulistonni aylanadi).

Bir zebândur şehr-i gam takrîrine her berg-i gül

Eylemez bâ-hûde gül gördükte efgân andelîb (Fuzuliy)

(Anduhni sharh etish uchun har bir gul yaprog`i bir zabondir. Yo`qsa bulbul uni har ko`rganda afg`on chekishi bekorga emas).

Tecahül-i Arif -tecahül-i ârifane (tajohuli orifona) –“bilib turib bilmaslikka olish” ma`nosini ifodalovchi ushbu she`riy san`at shoirning baytda aks ettirilayotgan biron obrazli iborani aniq aytmasdan o`zini bilib bilmaslikka olgandek ko`rsatishni nazarda tutadi. Tajohuli orifona qo`llangan baytlarda ko`pincha mahbuba qiyofasi qiyosiy holda tasvirlanadi, bir yoki bir necha o`xshatiladi, lekin uzil-kesil fikr bildirilmaydi. Shoirning o`zini bilib bilmaslikka olishi shartli bo`lib, asl maqsad ta`rif yoki tavsifdan, yor qiyofasini mubolag`ali tarzda gavdalantirishdan iborat bo`ladi.

Göz gördü gönül sevdi seni ey yüzü mahım

Kurbanın olam var mı benim bunda günahım?

(Ko`z ko`rdi, ko`ngil sevdi, ey yuzi mohim,

Qurboning bo`lay, bormi bunda mening gunohim?)

Benim mi Allah'ım bu çizgili yüz?

Ecel tuzağını açamaz mısın

Açıp da içinden kaçamaz mısın

Azat eyleseler uçamaz mısın

Kırık mı kanadın kolların hani

(Shu ajin yuz menikimi Ollohim?

Ajal tuzog`ini yecholmaysanmi,

Yechsang-da sen undan qocholmaysanmi,

Ozod qilsalar-chi ucholmaysanmi,

Siniqmi qo`llaring, qanoting aygin?)

Mâh-ı nevdür yoksa sen kıldıkda seyr-i âsümân

Kaldırıp parmak getirmiş âsumân îman sana (Fuzuliy)

(Shu ko`ringan yangi oymikan? Yo`qsa sen merojga chiqayotganda osmon barmog`ini ko`tarib imon keltirdimi?)

Leff ü neşr(laff va nashr)- “yig`moq va yoymoq” she`r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadigan san`at. Bundan asosiy maqsad nomlari keltirilgan narsa va tushunchalarni bo`rttirib, ta`sirchan ifodalashdir⁸.

Yig`ilgan narsa va tushunchalar nomlari tartibi bilan ulardan chiqarilgan hukm va xulosalar tartibi nisbatiga ko`ra laff va nashr **murattab**-tartibli(“*leff ü neşr-i müretteb*”) va **nomurattab**-tartibli bo`lmagan(“*leff ü neşr-i müşevveş*”)<sup>9</sup> turlarga bo`linadi.

Ârızın yadıyla nemnâk olsa müjgânım nola

Zâyi olmaz gül temennasıyla vermek hâra su

Gülşene nergis ü gül hayli letâfet verdi

Şimdi açıldı dahi yüzü gözü gilzârın

Teşbih(Benzetme¹⁰) –tashbih(o`xshatish)

Ikki yoki yoki undan ortiq narsa, hodisa xususiyatlarni ular o`rtasidagi o`xshashlik, umumiylik nuqtai nazaridan qiyoslash. Tashbih tasvir obyekt(predmet yoki hodisaning yoxud ularning xususiyatlarini) yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Tashbih to`rt qismdan tarkib topadi:

⁸ www.edebiyatterimleri.com

⁹ Divan şiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005, 135-136-bb.

¹⁰ www.edebiyatogretmeni.com

- mushabbih- o`xshatilgan narsa, **benzetilen** (üstün olan)
- mushabbihunbin- o`xshayotgan narsa , **benzeyen** (zayıf olan)
- odati tashbih- o`xshatish vositalari, **benzetme yönü**
- vajhi tashbih –o`xshatish sababi, **benzetme edat**

Bularning ikkitasi asosiy vosita, qolgan ikkitasi yordamchi vositadir.

Eviniz kutu gibi küçücük bir evdi

Bin atlı akınlarda çocuklar gibi şendik

Bin atlı o gün dev gibi bir orduyu yendik

Gül tenli, kor dudaklı, kömür gözlü sürmeli

Garibanlar yolunuyor kaz gibi

Yaslı gelin gibi mahzun mu bilmem

Gül yüzünde güller açar

Geceleri gölgem yollarda donar

Kar gibi kürürüm kendi gölgemi

Gözlerimiz kurşun elimiz bıçak

Severken öldürdük güzellikleri

Şiir bir cennet bahçesi

Girmeyene anlatılmaz

Şiir toprak kokusudur

Şiir damla damla sudur

Yarin dudağından getirilmiş

Bir katre alevdir bu karanfil

Tashbih vositalarning qo`llanilishiga ko`ra bir qancha turlarga ajratiladi:

- Mutlaq o`xshatish, Tam Benzetme (ayrıntılı benzetme)

Tashbih vositalarining barchasi qo`llangan o`xshatish.

Ali aslan gibi cesurdur

Cennet kadar güzel vatanımız var.

- Barobar o`xshatish, Kısaltılmış Benzetme

O`xshatish vositalari qatnashmagan tashbih.

Sen de baban gibisin.

Nokta kadar ağzı vardı.

c. Qiyosiy o`xshatish, pekiştirilmiş benzetme

O`xshatish sababi ko`rsatilmagan tashbih.

Aşk pırıl pırıl, ilâhî bir mumdur.

Yumuşak bir el olmuştu saçlarımda rüzgâr

Akşam, yol gibi gezer.

Sükûn su gibi dolar.

e. Ketma- ket o`xshatish, yaygin beznzetme

O`xshamish va o`xshatilmish orasidagi birdan ortiq xususiyat ketma-ket sanalib, oxirida ikki vosita ham aytib o`tiladi.

Feminin rengi aks edip tenine

Yeni açmış güle misal olmuş

Giriyor göz yumunca rüyama

Benziyor aynı kendi hülyama

Bu tasavvur dokundu sevdama

Ah böyle gezer mi hiç canan

Gül değil arkasında kanlı kefen

Sen misin, sen misin garip vatan

Yuqoridagi she`rda Vatan mashuqaga o`xshatilgan. Ayol va Vatan orasidagi o`xshash xususiyatlar sanalgandan keyin asl o`xshatish vositasi ya`ni, Vatan izohlahlab berilgan .

Tezat Tazod “zidlash, qarshilantirish”

Baytda bir-biriga zid tushunchalar tashuvchi so`zlarni qo`llab, ta`sirchan obraz va lavhalar yaratish san`ati. Tazodda bir-biriga qarama-qarshi narsa va tushunchalar to`qnashtiriladi, ayni chog`da ularning zamini asosi zid tushunchalarni o`zida mujassamlashtirgan obyektning birligi va shu obyektning ta`sirli qilib ochish va unga nisbatan kitobxonda faol munosabat uyg`otishdan iborat.

Kanı ol gül gülerek geldiği demler şimdi

Ağlarım hatıra geldikçe gülüştüklerimiz (Mahir Baba)

İçimde kor donar, buzlar tutuşur.

Ne efsunkâr imişsin ah ey didar-ı hürriyet

Esir-i aşkın olduk gerçi kurtulduk esaretten (Namık Kemal)

İrsal-i Mesel, Irsol-u masal “maqol qo`llash”

She`rda maqol, matal, hikmatli so`zlarni muqyyan maqsadda tamsil yo`li bilan ishlatish.

Nabiy ushbu san`atga oid quyidagi fikrni beradi:

Sözde darbü`l-mesel irâdına söz yoktur

Söz odur âleme senden kala bir darb-ı mesel

(She`rda maqol qo`llashning hech yomon tarafi yo`q,

Faqat shunday so`z aytki, sendan maqol sifatida qolsin.) **Nabi**

Ağyâr elemin çekme gönül nâfile gamdır

Hasmın sitemin anlamak hasma sitemdir **Nef`i**

Ushbu baytda “Dushmanning zulmini bilish dushmanga sitamdir” degan turkcha maqol qo`llangan.

Teşhis ve İntak¹¹, Tashxis va Intoq “jonlantirish” va “gapirtirish”

Badiiy asarda hayvonlar, qushlar va jonsiz narsalarni odamlarga o`xshatib gapirtirish san`atidir.

Andelîb-i zârı berg-i gülle tekfîn etdiler

Bir Gülistan beytini üstüne telkîn etdiler **İ.Molla**

Ushbu baytda insnga xos xususiyat ko`chirilib tasvirlangan.

Îham, Iyhom “shubhaga solish”

Mumtoz adabiyotda iyhom ikki xil tushunchani ifodalovchi, shunindek, haqiqiy va majoziy ma`nolarga ega bo`lgan so`z yoki so`z birikmasini she`riyatda qo`llagan holda bir baytda ikki xil ma`noni ifodalash san`atidir.

Ney-i bezm-i gamem ey âh ne bulsan yele ver

Oda yanmışkuru cismimde hevâdan gayrı **Fuzuliy**

Ushbu baytda **hevâ** so`zi ham nafs, hamda Havo ma`nosida kelgan.

¹¹ Divan şiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005, 131-b.

Tekrir, Takrir “ takrorlash”

She`rda ifodalanayotgan fikrni ta`kidlab ko`rsatish va asar musiqiyliğini oshirish niyatida ishlatiladigan so`z yoki so`z birikmasi takroriga asoslangan she`riy san`atdir.

*Bu yağmur, bu yağmur, bu kıldan ince
Nefesten yumuşak yağın bu yağmur
Bu yağmur, bu yağmur bir gün dinince
Aynalar yüzümü tanımaz olur* (Necip Fazıl).

*Kaldırımlar, çilekeş yalnızların annesi
Kaldırımlar, içimde yaşamış bir insandır
Kaldırımlar, duyulur, ses kesilince sesi
Kaldırımlar, içimde kıvrılan bir lisandır* (Necip Fazıl)

*Söz ola kese savaşı
Söz ola kestire başı
Söz ola ağulu aşı
Yağ ile bal ede bir söz.* (Yunus)

Tenasüp, Tanosub “ bir- biriga munosib”

She`r baytlarida ma`no jihatdan bir- biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so`zlarni qo`llab, ular vositasida obrazli ifoda va lavhalar yaratish san`atidir.

*Bir elinde gül bir elde cam geldin sakiya
Hangisin alsam gülü yahud ki camı ya seni
Ne efsunkâr imişsin ah ey didar-ı hürriyet
Esir-i aşkın olduk gerçi kurtulduk esaretten* (Namık Kemal)

Bu yerda hürriyet (ozodlik) va kurtulmak (ozod bo`lmoq) esir (asir) va esaret (asirlik) so`zlari o`rtasida tanosub yuzaga kelgan.

*Bir şâhda iki gonçe-i gül
Birbirlerine olurdu bülbül.
Aşk derdiyle hoşem el çek ilâcımdan tabib
Kılma derman kim helâkim zehri dermanındadır.* (Fuzulî)

Bu yerda dert (dard), ilâç (dori), tabip (tabib), derman (darmon), zehir (zahar) kabi tibbiyotga oid so`zlar orqali tanosub yuzaga kelgan.

Rücu, Ruju “qaytish”

She`riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalangan fikri, qo`llagan badiiy tasviriy vositalardan qaytgandek bo`lib, keyingi misra yoki baytda unga

qaraganda kuchliroq ifoda, she`riy san`atni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to`ldirish usuli. Ruju mohiyati o`z-o`zini inkor etib, fikrni kuchaytirishdadir.

Sordum meger bu dürc-i dehendür dedim dedi

Yok yok devâ-yı derd-i nihânın durur senin (Fuzuliy)

(Mashuqadan so`radim: Bu og`iz bir qutimikan

Dedi: Yo`q, aslo, bu sening yashirin g`amingning darmonidir.)

İstiare, Istiora “omonatga olish”

She`riyatda so`zni o`z ma`nosida emas, majoziy ma`noda qo`llash san`ati. Mazkur ikki ma`no narsa va tushunchalar orasidagi o`xshashlikka asoslanadi. Shu jihati bilan istiora o`xshatish san`atiga juda yaqindir. Istiora ko`pgina o`rinlarda musabbihi tushurib qoldirilgan tashbehga misol bo`ladi. Turk adabiyotshunosligida istiora ikkiga bo`linadi¹²:

a) Açık İstiare (Ochiq istiora)

O`ziga o`xshatilayotgan narsaning nomi bilan amalga oshiriladi. O`xshatilgan narsaning nomi tilga olinmaydi.

Gökyüzünün kandilleri (yıldız) yanmıştı

Bir med zamanı gökyüzü kurşunla (bulut) örtülü

Havada bir dost eli (rüzgâr) okşuyor tenimizi

Doya doya sevemedim kuzumu (çocuk)

Bir gün gelecek sen de perişan olacaksın

Ey gonca (sevgili) bu cemiyeti her dem mi sanırsın

İki kapılı bir handa

Gidiyorum gündüz gece (Aşık Veysel)

b) Kapalı İstiare (Yopiq istiora)

O`xshtilayotgan narsa nomini qo`llash bilan ifodalanadi, o`ziga o`xshatilgan narsa aytilmaydi.

Boynu bükük adalar tanıyor sanki bizi. (insan; boynu bükük, tanıyor)

Yüce dağların başında

Salkım salkım olan bulut (üzüm; salkım salkım)

¹² Divan şiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005, 127-b.

Ahmet, kükreyerek rakibinin üzerine saldırdı. (aslan; kükreyerek)

Bükün boynunuzu bayraklar bükün. (insan; bükün boynunuzu)

Çamlar hüznü, yollara düşmüş söğüt çınar (insan; hüznü, yollara düşmüş)

Yedi yıl süren hikâyemizi dinlemiş ihtiyar çınardan. (insan; ihtiyar)

Aliterasyon , Alliteratsiya “(lot.) harf”

She`riy nutqda, qisman nasriy asarlarda bir xil tovushlarning takrorlanishi, tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo`lgan ohangdorlik alliteratsiya deb yuritiladi. Qadimgi turkiy adabiyotda alliteratsiya yetakchi tasvir usullaridan biri bo`lgan.

Öldük ölümden bir şeyler umarak

Bir büyük boşlukta bozuldu büyü

Eylülde melûl oldu gönül soldu da lâle

Bir kâküle meyletti gönül geldi bu hâle (Edip Ayel)

Kinaye, Kinoya “piching, qochirim”

Biror fikrni piching yo`li bilan yashirin ifodalashga asoslangan she`riy san`atdir. Iboralning ko`pida bu san`atga murojaat qilingan.

Tuttugunu koparan ihtiyarlardan biriydi.

(chindan ushlaganini qo`porib oladigan darajada kuchli, shuning bilan birga, boshlagan ishini tugatadiganlardan biri)

Cep delik cepken delik,

Kol delik, mintan delik,

Yen delik, kaftan delik

Kevgir misin be kardeşlik.

Bu yerda “cep delik” -cho`ntagi yirtiq so`zi kinoyali qo`llangan. Haqiqiy ma`nosidan tashqari “cebinde para olmaması”-cho`ntagida pul turmasligi ma`nosida ham keladi.

Telmih, Talmeh “ar. nazar solmoq”. She`rda mashhur tarixiy voqea,afsona va dostonlar qahramonlari, taniqli tarixiy shaxslarga ishora qilish orqali tasvirlanayotgan obrazning u yoki bu jihatini ta`kidlash, bo`rttirib ko`rsatishga yo`naltirilgan she`riy san`at. O`quvchi muayyan nomga ishorani ko`rarkan,uning

ko`z oldida o`sha qissa, o`sha qahramon butun taqdiri, bosh belgi-xususiyatlari bilan jonlanadi. Shoir demoqchi bo`lgan fikr, g`oya, tuyg`uni yorqinroq tasvvur qiladi va anglab yetadi. Zero, bu jarayonda o`quvchi o`zi mutolaa qilayotgan she`ning lirik qahramonini eslanayotgan shaxs bilan qiyoslaydi.

Verseydi âhi Mecnun feryadımın sedasın

Kuş mu karar ederdi başındaki yuvada (Fuzuliy)

İstifham, Istifhom “ar. so`ramoq”. Lirik qahramonning ichki olami, qalbida mavjlanayotgan tuyg`ulari, pokiza orzularini, kimgadir yoki nimagadir murojaat etib so`rash orqali, savollar vositasida aks ettirishga asoslangan she`riy san`at. Istifhomda qo`yilayotgan savol javobi tajohuli orifona san`atidan farqli o`laroq savol egasi – lirik qahramonga noma`lum ya`ni haqiqiy savol mazmunida bo`ladi va unga javob kutilishi mumkin.

Nedir bu handeler bu işveler bu naz u istiğna

Nedir bu cilveler bu şiveler bu kâmet-i bâlâ (Boqiy)

1.2. Turk adabiyotshunosligida she`riy vaznlar va ularning semantik-struktur tahlili

Aruz Sharq xalqlari adabiyotida keng qo`llanilgan o`ziga xos vaznlar tizimi. Aruz vazni hijolarning talaffuzidagi uzun qisqaligiga asoslangan bo`lib, musiqa bilan chambarchas bog`liqdir¹³.

Aruz vazni – aslida arab nazmining qadimiy she`riy tizimi. Aruz haqidagi ilm – aruzshunoslik VIII asrda vujudga kelgan. Bu ilmning asoschisi mashhur arab adibi va olimi Halil ibn Ahmaddir. Halil ibn Ahmad arab nazmini chuqur tadqiq etib, undagi bir necha vaznlarni kashf etgan va ularni 15 bahrli bir tizimga solib uni “Aruz” deb nomlagan. Bu she`riy tizimning aruz deb atalish sababini aruzchilar turli xil

¹³ Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so`zligi, F.Salayev, G.Qurboniyozova, T.,2010

izohlashadi. Baʼzilar “Aruz” soʻzining lugʻaviy maʼnosi “qiyin yoʻl”, bu ilm qiyin boʻlganligi uchun uni aruz deb ataganlar deyдилar. Boshqa aruzchilar bu soʻz “arz qilinadigan” degan maʼnoga ega, sheʼr vaznini aniqlash uchun bu ilmga arz qilinadi, shu sababli unga aruz deb nom berganlar degan fikrni olgʻa suradilar. Alisher Navoiy “Mezon ul avzon” asarida “aruz” atamasini quyidagicha izohlaydi: “Va bukim, bu ilmni nechun “aruz” deyдилar, muxtalif ahvol bor. Ul jumladin biri bila iktifo qililur. Va ul budurkim, Halil ibn Ahmad rahmatullohki bu fanning voziʼidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki ani aruz derlar ermish va ul vodiya arob oʻyinlarini tikib, jilva berib, bahogʻa kiyirurlar ermish. Va uyni arab “bayt” der. Chun baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzuyini boʻlur, bu munosabat birla aruz debdurlar” .

Bu fikr gʻoyatda eʼtiborli moʻtabar va haqiqatga yaqin.

Bundan tashqari, namatdan ishlangan oʻtovning oʻrtasidagi tirgak yogʻochni ham aruz deb yuritganlar. Binobarin, koʻchma maʼnoda bayt – uyining birinchi misrasining oxiridagi ruknni ham aruz deb yuritganlar. Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida aruz vazniga oʻxshash vaznda yaratilgan sheʼriy parchalar bor. Bu hol, birinchidan, turkiy tilde yaratilgan sheʼr vaznini aniqlashda misradagi soʻzlarning boʻgʻin miqdorini hisobga olish bilan aloqador boʻlsa, ikkinchidan, aruz va barmoq tizimlari bir-biriga tabiatan yaqin sheʼr tuzilishidir. Aruzning turkiy sheʼriyatda yashab qolishi va rivoj topishining boisi mana shundadir.

Barmoq sheʼriy tizimi

Turkiy xalqlar sheʼriyatida keng tarqalgan misralaridagi boʻgʻinlar miqdori tengligi – sillabikaga asoslangan sheʼriy tizim. Bu sistemada misralardagi teng sonli boʻgʻinlar oʻzaro birikib, bir maromda takrorlanishi natijasida ritmik ohang hosil qilishga koʻmaklashadigan turoqlarni yuzaga keltiradi. Misralardagi turoqlar, turoqlardagi boʻgʻinlar miqdoriga nisbatan sheʼrlar turli vaznlarga ajratiladi.

Oʻzbek, turk, qozoq, qoraqalpoq, turkman, qirgʻiz, ozarbayjon, tatar va boshqa turkiy xalqlar ogʻzaki poeziyasida juda qadim davrlardayoq paydo boʻlgan barmoq tizimi shu xalqlarning hozirgi sheʼriyatining ham asosiy sheʼriy sistemasi sifatida qoʻllanilib kelmoqda.

She`riyatning eng muhim jihati so`zlarni, misralarni qamrab oluvchi vazndir. Vazn she`rlarning o`lchov tizimidir, ya`ni biron bir she`ning birinchi misrasida bo`g`inlar miqdori qancha bo`lsa, keying misralarda ham shu bo`g`in miqdori saqlanadi. Turk sheriyatida ikkita she`riy vazn mavjud¹⁴:

1. Hece vezni – Barmoq vazni
2. Aruz vezni – Aruz vazni.

Bundan tashqari turk she`riyatida sarbast nazm ham qo`llanadi.

Heje vazni turk she`riyatining asosiy nazm o`lchovidir. Heje vazni (barmoq vazni) **barmoq hisobi** ham deyiladi. Tarixda turk xalqi, soz shoirlari mani (moni), turku (milliy qo`shiq), doston kabi nazmiy asarlarni aynan mana shu vaznda yaratishgan. Heje vazni turk tili grammatik qurilishiga mos tushadi.

Yozma adabiyotga barmoq vazni xalq og`zaki ijodi namunalari orqali o`tgan.

Yuqorida aytib o`tilganidek, heje vaznida yozilgan she`r misralaridagi bo`g`in sonibir xil bo`lishi kerak.

Misol tariqasida, Ruxsatiyning bir qo`shmasini ko`rib o`tamiz:

Bir vak-te er-di ki bi-zim gü-nü-müz

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

Ko`rinib turibdiki bu qo`shmaning ilk misrasi 11 bo`g`indan iborat. Boshqa misralar miqdorini sanaydigan bo`lsak, ayni mana shu son kelib chiqadi. Turk she`riyatida heje vaznida yozilgan she`rlar faqat 11 bo`g`indan iborat emas. Ular 5 bo`g`indan 16 bo`g`ingacha bo`ladi. Turk she`riyatida yeti, sakkiz, o`n bir va o`n to`rt bo`g`inli she`rlar ko`p qo`llaniladi.

Yetti bo`g`inli:

Yı-lan ka-ya-dan uç-tu

1 2 3 4 5 6 7

Kanat kırıldı düştü

Her bir dala konmazdı

Şimdi ne hale düştü

¹⁴ Edebî okuma kitabı, Riza Mollof, ‘Narodna prosveta’ devlet neşriyatevi, Sofya 1957

Sakkiz bo`g`inli

A-dım süm-bül bo-yum u-zun

1 2 3 4 5 6 7 8

Bardaklarım dizim dizim

Açılırım bahar, güzün

Benden âlâ çiçek mi var.! (Ö. Bedrettin)

O`n bir bo`g`inli

Bül- bül ne ya-tar-sın yaz ba-har u-zun

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

Çağrışıp ötmenin zamanı geldi

Serviler yeşerdi çiçekler doldu

Cana can katmanın zamanı geldi (Cevheri)

O`n to`rt bo`g`inli

O gün-ler-ce dö-ğül-dü, fa-kat hiç sır ver-me-di

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14

Yanıldı bir aralık ve yalnız “Anton” dedi

İsmi fısıldadı sustu ve benzi uçtu

Vücudu kan içinde, yaralarıkorkunçtu (V. Andreef)

Heje vaznining yana bir xususiyati misralarning turoqlarga bo`linishidir. Masalan,

Bir vakte erdi ki bizim vaktimiz

Yiğit belli değil mert belli değil

$6+5=11$

Bu misoldan ko`rinib turibdiki, misra ikki qismga bo`lingan: birinchi qism olti, ikkinchi qismi esa beshta bo`g`in bor. Shunday qilib, 11 bo`g`inli misra 6+5 bo`g`inli qismlarga ajratilgan. Misralarning bunday qismlarga ajralishi durak (turoq) deyiladi.

Heje vaznida turoqlar bo`ladi.

Sakkiz va o`n to`rt bo`g`inli turoqlar.

4+4=8; va 7+7=14 tarzida bo`ladi. Masalan:

1) *Adım sümbül boyum uzun*

$4 + 4 = 8$

2) *O günlerce döğüldü fakat hiç sır vermedi*

$$7 + 7 = 14$$

O`n bir bo`g`inli vaznlarning aksariyati yuqorida ko`rib o`tkanimiz kabi  $6+5=11$  bo`g`in bo`limlariga bo`linadi.

Turoqlar misralardagi ohangni kuchaytiradi. Vaznlardagi turoqlar turk she`riyatining asrlar davomida shakllangan, qonunlashgan ohang unsurlaridir. Heje vaznida she`rlar yozilganda har doim turoqlarni ham e`tiborga olish kerak.

Aruz vazni arab she`riyatining milliy nazm shaklidir. Turk she`riyatiga arab va eron adabiyoti orqali kirib kelgan. Turk she`riyatida asrlar davomida she`r qolibi sifatida joy olgan.

Aruz vaznining eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Aruz vaznida heje vaznidagi kabi, asosiy o`lchov misralardagi bo`inlar miqdoridir. Masalan, Tavfiq Fikratning “Sabah olursa” (Tong otsa) she`ridagi har bir misra 15 hijodan iboratdir. Tanlangan misralar 14 bo`g`indan bo`ladi. Faqat hijo sonining o`lchovi boshqa unsurlarga asoslanadi. Bu jihat hijolarning uzun va qisqaligiga asoslanadi. Ma`lumki, so`zlarning hijolarida qisqalik va cho`ziqlik har doim mavjuddir.

Faqat hijo uzunligi aksariyat hollarda so`zlarning oxirgi bo`g`iniga to`g`ri keladi. Hij o uzunligiga arabcha va forsch a so`zlarda uchratamiz.

Masalan, **cahil** so`zida **ca** hijosi uzun, **hil** hijosi qisqadir.

Endi uzun hijolari (—), qisqa hijolari V belgisi bilan bir misra she`rni ko`rib chiqamiz.

T. Fikrat bir she`rida “Fikri hür, vicdanı hür, irfanı hür bir şairim” deydi. Ushbu misradagi qisqa va cho`ziq bo`ginlarni belgilab chiqamiz:

Fik ri hür, vic da nı hür, ir fa nı hür bir şa i rim

— V — — — V — — — V — — — V —

Ko`rinib turibdiki, bu qolipga solib yozilgan she`rdir.

Shu kabi aruz vaznining bir nechta qoliplari mavjud. Aruz vazni turk tili grammatik qurilishiga uyg`un bo`lmaganligi bois ba`zi so`zlarning talaffuzini buzadi. Shu sababli hozirda bunday she`rlar deyarli yozilmayapti.

Türk adabiyotshunosligida aruz va heje (barmoq) sheʼr shakllaridan tashqari sarbast (erkin) sheʼr shakli ham bor.

Sarbast shakli hissiyot vatushunchalar anchayin erkin bayon qilinmoqda.

Sarbast shaklda vazn ham qofiya ham muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Quyida sarbast vaznining baʼzi xususiyatlarini koʻrib chiqamiz:

Dastlab, Nozim Hikmatning “Çarlık Rusyanın ölümü” (Chor Rossiyasining oʻlimi) nomli sheʼrining baʼzi misralariga toʻxtalib oʻtamiz:

“Bin dokuz yüz on yedi ikinci teşrin idi

yumuşak ve derin

sesi ile Lenin

dün erkendi yarın geç

zaman tamam bugün” dedi.

Ushbu misralarda koʻrinib turganidek, boʻgʻinlar soniga ahamiyat berilmagan. Lekin qofiya jihatidan bu sheʼr butunlay sarbast emas.

Agar sheʼrga diqqat qaratadigan boʻlsak, maʼlum boʻladiki, tenglama baʼzi joylarda yonma- yon shaklda amalga oshirilgan. “dedi” va “idi”, “derin” va “Lenin” kabi.

She`riy va badiiy turlarga oid terminlarning struktur tahlili

1	Sodda terminlar	Pyesa, hikoya, povest, roman, doston, drama, tragediya, ertak, komediya, g`azal, ruboiy, qit`a, masnaviy, musammat, murabba, muxammas, musaddas, qasida, nasib, faxriya, duo, tashbib, turkular, manilar, ninnilar(allalar),
2	Yasama terminlar	
3	Qo`shma so`z shaklidagi terminlar	
4	So`z birikmasi shaklidagi terminlar	tarixiy roman, siyosiy roman, ishqiy roman, sarguzasht roman, bola turkulari, tabiat va cho`pon so`z turkumlari, ishq va sevgi turkulari, tantana va mavsum turkulari, mehnat va hunarmanchilik turkulari, feodallar va qaroqchilar turkulari, qahramonlik turkulari, marsiya turkulari, hajv turkulari, fojiaviy turkular, dramatik turkular, o`yin turkulari, tarixiy turkular; topishmoq manilar, shaharlar haqida manilar, ramazon va soqchilar manilari, bayram manilari, qahva manilari, maqol va iboralarni o`z ichiga olgan manilar, Hizir Ilyos bayramida aytiladigan manilar
5	Iboralar shaklidagi iboralar	

II bob

Turk tilida she`riy va badiiy turlarga oid adabiyotshunoslik atamalarining semantik-struktur tahlili

2.1. She`riy turlarga oid atamalarining semantik-struktur tahlili

Janr (fr. genre – tur, janr) so`zidan olingan<sup>15</sup>. Mavjud adabiy turlardagi badiiy asarlar hayotiy qamrovi, uni aks ettirishning shakl va usullari jihatdan yana ham kichik turlarga bo`linadi. Mana shu turlar adabiyotshunoslikda janr deb yuritiladi. Masalan, epik tur: roman, qissa, hikoya, ertak, latifa, ocherk kabi janrlarga bo`linadi. Lirik tur: qo`shiq, g`azal, ruboiy, qit`a, qasida, she`r kabi o`nlab jarlardan iborat. Dramatik tur: komediya, drama, tragidiya va intermediya kabi janrlardan tashkil.

Janrlar xalqning ijtimoiy-maishiy hayoti, ma`naviy-estetik qarashlari, badiiy tafakkuri bilan bog`liq ravishda doimo taraqqiyotda, yangilanish jarayonida bo`ladi.

**G`azal** sevgi haqida gaplashmoq ma`nosini bildiradi¹⁶. Dastlab, arab adabiyotida Qasida ichida bir bo`lim sifatida o`rin olgan. VII asrdan keyin alohida bir nazm sifatida shakllana boshladi. Turk she`riyatida g`azalning 5 baytdan 7 baytgacha bo`lgan namunalari uchraydi. 15 baytdan ortiq bo`lganlariga "g`azali mutavval" deyiladi. Shoirlarning ismlari, laqablarining qo`llanilishiga taxallus deyiladi.

Biror shoirning g`azalidan ilhomlanib ayni shu vazn va qofiyalar saqlangan holda yozilgan g`azallarga tanzir (tazmin) deyiladi. Ushbu yozilgan g`azallarga nazira deyiladi. G`azalning ilk bayti "matla", oxirgi bayti esa "maqta" deyiladi. Matladan keyingi bayt "husni matla", maqtadan oldingi bayt "husni maqta" deyiladi. G`azalning eng go`zal baytiga "bayt ul-g`azal" yoki "shohbayt" deyiladi. G`azallar turli xil mavzularda yozilishi mumkin. Bu mavzular: ishq, mashuqa, falsafa, o`y-fikr, hayot haqidadir. Agar biror g`azalda mavzu birligi bo`lsa "yek ahenk" g`azal deyiladi. Tovush birligi bo`lsa "yek avaz" g`azal deyiladi.

Mavzusiga ko`ra g`azallar 4 guruhga bo`linadi:

¹⁵ Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so`zligi, F.Salayev, G.Qurboniyozova, T.,2010

¹⁶ Divan shiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005, 101-b.

1. Aşk gazelleri, Oshiqona g`azallar. Ishq tufayli chekilgan g`am, alam va his qilingan baxtiyor damlar tasvirlangan g`azallarga oshiqona g`azallar deyiladi.

2. Rindane gazeller, Rindona g`azallar. Hayotga nisbatan befarqlik va yashashga bo`lgan zavq tasvirlangan g`azallar rindona g`azallar deyiladi.

3. Şühâne veya nedimane gazeller, Shuhane yoki nedimane ga`zallar. Mashuqa go`zalligi yoki shavqu zavqlari tasvirlangan g`azallarga shuhane yoki nedimane g`azallar deyiladi.

4. Hikemi gazeller, Hikemi (hikmatli) g`azallar. Axloqiy, pand-nasihat ruhida yozilgan g`azallarga hikemi (hikmatli) g`azallar deyiladi.

Turk she`riyatida Najotiy, Boqiy, Fuzuliy, Shayxulislom Yahyo, Nadim, Shayx G`olib g`azallari juda mashhurdir.

Âşık olana aşk odından nişân gerek

Bagrı kebâb gözlerinin yaşı kan gerek. (Ahmadiy)

(Oshiq bo`lgan insonga ishq olovidan bir nishon kerak

Bag`ri kuygan, ko`zyoshlari qonli bo`lishi kerak.)

Benim tek hiç kim zâr ü perişân olmasın yâ Rab

Esîr der-i aşk u dağ-i hicrân olmasın yâ Rab. (Fuzuliy)

(Ollohim! Hech kim mendayin zayif va o`zidan kechmasin,

Ishq dardining va hiron yarasining tutsag`i bo`lmasin. Ollohim!)

Qasida

Qasida ("maqsad qilish") biron bir shaxsni maqtash maqsadida yoziladi va uning hajmi 90-100 baytgacha bo`lishi mumkin. Qasidalar mavzusiga ko`ra 4 guruhga bo`linadi¹⁷:

1. Nasib yoki tashbib
2. Madhiya
3. Faxriya
4. Duo

¹⁷ Divan şiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005,

Nasib qismida bahor tasvirlangan qasidalarga Bahoriya, qish tasvirlangan qasidalarga Shitaiye, bayramlar tasvirlangan qasidalarga Iydiya (va boshqalar) deb nomlanadi. Shundan kelib chiqib, qasidalarining mavzusiga ko`ra turli xil nomlanishini ko`rishimiz mumkin. Devon she`riyatida Ahmad Posho, Boqiy, Nafiylar buyuk qasidanavis shoirlar hisoblanadi. Qasidaning qofiyalanish tartibi: aa, ba, ca, da, ea, fa... shaklida bo`ladi.

Yilda bir kerre menâr-ı şâhdan dîdâr gül

Gösterür nite ki nûrı Ahmed-i Muhtâr gül (Najotiy)

(Gul, shoxlar minorasidan yilda bir bor Muhammad s.a.v.ning nuri kabi bo`y ko`rsatadi.)

Qit`a

Qit`a ("bo`lak parcha") 2 baytdan 10 baytgacha bo`lishi mumkin<sup>18</sup>. Biroq qit`ayi kabiraning baytlari soni undan ham ko`p bo`lishi mumkin. Qofiyalanish tartibi: ba, ca, da... tarzida bo`ladi.matlasi ham, maqtasi ham bo`lmaydi. Mavzusiga ko`ra falsafiy, tasavvufiy, hayotiy bo`ladi. Ba`zan maqtash, ba`zan esa birovni hajv qilish maqsadida yoziladi.

Bundan tashqari, tarix qit`alarining ham salmog`i kattadir. Turk adabiyotida 2 baytli qit`alar ancha mashhurdir. Mustafo Ashraf Posho (o`limi 1895)eng ko`p qit`a yozgan shoirdir.

İlim kesbiyle pâye-i rif`at

Ârzû-yı muhâl imiş ancak

Aşk imiş her ne var âlemde

İlm bir kîl ü kâl imiş ancak. (Fuzuliy)

(Ilmni o`ragnish bilan qadr-qimmatning ortishini kutish befoyda bir xayol ekan. Bu dunyodagi asil haqiqat ishq ekan, ilm bor yo`g`i g`iybat ekan xolos.)

Ruboiy

Ruboiy "to`rtlik" degan ma`noni anglatadi. Ruboiyda 1-, 2- , 4- misralar o`zaro qofiyadosh bo`ladi. Aruz she`riy tizimi hazaj bahrining 24 vazni asosida yaratiladi. Ular axrab va axram tarmoqlari deb nomlangan ikki guruhga teng bo`linib, har biri

¹⁸ Divan şiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir-2005,

o`n ikkitadan vaznni o`z tarkibiga oladi. Bundan tashqari ruboiyning barcha misralari o`zaro qofiyalanishi mumkin. Ruboiy janrida ijod qilishning eng mushkul tomoni qisqa, lo`nda, ixcham fikrni to`rt misrada aks ettirishdir. Forslarda Umar Xayyom, arablarda Umar bin Farid, turklarda Holatiy ruboiylari bilan mashhurdir.

Eslâf kapıldıkça güzelden güzele

Fer vermiş o neşveyle gazelden gazele

Sönmez seher-i haşre kadar şî`r-i kadîm

Bir meş`aledir devr edilir elden ele (Yahyo Kamol)

(Oldinlari go`zallardan go`zalga oshiq bo`lib qolgach, o`sha sarho`shligi bilan g`azallarga chiroy bemishlar. Qadimiy she`r qiyomatgacha davom etadi, u qo`ldan qo`lga o`tib yuruvchi mash`aladir.)

Tuyuq

Tuyuq turkcha so`z bo`lib, qo`shiq kuylash, imoli so`z aytish ma`nosini bildiradi. Tuyuq toyuq, qo`shiq yoki manilarning aruzda yozilgan shaklini eslatadi. Tuyuq faqat bir vazn – ramali masaddasi mahzuf (foilotun foilotun foilun) da yoziladi. Qofiyalanishi ba, ca, da... shaklida bo`ladi. Qozi Burhoniddin, Sayid Nasimiy eng ko`p tuyuq yozgan adiblardir.

Dalmışam şol bahre kim pâyânı yok

Batmışam şol gence kim hüsrânı yok

Bulmuşam şol bedri kim noksânı yok

Girmişem ol şehri kim vîrânı yok (Nasimiy)

(Shunday bir daryoga cho`mdimki, poyoni yo`q

Shunday bir xazina topdimki, hisobi yo`q

Shunday bir to`lin oy ko`rdimki, dog`i yo`q

Shunday bir shahar ko`rdimki, vayronasi yo`q.)

Masnaviy

Masnaviy (ar. ikkilik) deb adabiyotda ayni bir vaznda yozilgan va har bayti o`zaro qofiyalanuvchi nazm shakliga aytiladi. Uning 20 –30 baytgacha bo`lganlari qisqa masnaviylar bo`lsa, minglab baytlardan iborat bo`lgan yirik masnaviylar ham mavjud.

Beshta yirik masnaviy yozgan shoirlarga xamsanavislar deyilgan. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xusrav Dehlaviylar xamsanavislardir. Turk adabiyotida Yusuf Xos Hojibning “*Qutadg`u bilig*” dostoni, Jaloliddin Rumiyning “*Masnaviy*”si, Sulaymon Chalabiyning “*Mavlud*”i, Yazijio`g`li Mehmedning “*Muhammadiya*”si, Fuzuliyning “*Layli va Majnun*”i, Shayx G`olibning “*Husni ishq*” masnaviysi eng mashhur masnaviylardandir.

Musammat

Musammat ko`p bandli nazm shakllaridan biridir. Musammat arabcha ipga terilgan marvarid degan ma`noni anglatadi.

Adabiy atama sifatida 3 –10 misra va undan ham ko`p misralarda tashkil topgan nazm shaklining umumiy nomidir. Musammatlar yozilishiga ko`ra ikki xil bo`ladi:

1. Ijodkorning o`zi tomonidan yozilgan musammatlar
2. O`zga shoirning misrasi yoki baytidan foydalanib yozilgan musammatlar.

Bunga tazmin musammatlar ham deyiladi.

Agar musammat to`rt misradan iborat bo`lsa ***murabba***, besh misradan iborat bo`lsa ***muxammas***, olti misradan iborat bo`lsa ***musaddas*** deyiladi.

Demak, musammatlar misra soniga qarab farqli nomlar bilan nomlanadi.

Murabba:

Çıkdın elden nedelim ansızın ey pisi

Yandın ölüm oduna derd ile nâgâh pisi

Hasretâ şîr-i ecel buldu sana râh pisi

Nedelim âh pisi neyleyelim vâh pisi (Maoliy)

(Eyvoh seni yo`qotdik birdan, endi nima qilamiz ey mushuk.

To`satdan kasal bo`lib, o`lim olovida kuyding ey mushuk.

Hasrating bizni kuydirdi, ajal arsloni yo`lini topib senga erishdi ey mushuk.

Ne qilamiz, ey bechora mushuk, ey bechora mushuk.)

Musaddas:

Sultân-ı rusûl şâh-ı mümeccedsin efendim

Bî- çârelere devlet-i sermedsin efendim

Dîvân-ı İlâhîde ser-âmedsin efendim

“Menşûr-ı le’amrûkle” müeyyedsin efendim

Sen Ahmed u Mahmud u Muhammedsin efendim

Hak’tan bize sultân-ı müeyyedsin efendim (Shayx G`olib)

(Payg`ambarlarning sultoni, sharaflarning shohisan afandim. Bechoralarga cheksiz saodatsan afandim. Ollohning huzurida old qatorlarda keluvchisan afandim. Qutlug` qo`lingga havola qilingan “La’amruk” farmoni afandim. Sen Ahmadsan, Mahmudsan, Muhammadsan afandim.)

**Turkular (Turk xalq qo`shiqlari)** turk adabiyotining eng boy janrlaridandir<sup>19</sup>. Turkular xalq adabiyotining alohida bir turi bo`lib, unda qofiya va shakl yo`qdir. Ammo baxshilarning turkularida birinchi to`rtlikning 2- va 4- misralari bilan oxirgi to`rtliklarning 4-misralari bir xil bo`ladi, ya`ni naqoratli bo`ladi.

Turkularni mazmuniga ko`ra 12 bo`linga bo`lish mumkin:

1. Bola turkulari;
2. Tabiat va cho`pon turkulari;
3. Ishq va sevgi turkulari ;
4. Tantana va mavsum turkulari;
5. Mehnat va hunarmandchilik bog`liq turkulari;
6. Feodallar va qaroqchilar turkulari;
7. Qahramonlik turkulari;
8. Marsiya turkulari;
9. Hajv turkulari;
10. Fojiaviy, dramatik janrdagi turkulari;
11. O`yin turkulari;
12. Tarixiy turkulari.

¹⁹ Turkiya turk adabiyoti, Nevzat Ko`so`g`li, Feridun Alper, Emin Alper, Anqara, 2003

Ishq va tuyg`u turkularidan namuna:

*Çeper çektim yol açtım
Kızıl güle dolaştım
Yağma yağmur, yel esme
Ben yârime kavuştum*

*Chellar tortib yo`l ochdim,
Qizil gulga bog`landim,
Yog`ma yomg`ir, yel esma,
Men yorimga qovushdim.*

*Kız niye, niye, niye
Öldüm yâr diye, diye*

*Qiz nega, nega, nega
O`ldim yor deya- deya*

To`y-tantana turkularidan namuna:

*Elma tekerlendi yâr
Güzel şekerlendi yâr*

*Olmalar to`kildi yor,
Bol-u shakar bo`ldi yor.*

*Geline bak geline
Kına yakmış eline
Gelin küsmüş gidiyor
Babasının evine*

*Kelinga boq, kelinga,
Xino qo`ymish qo`liga,
Kelin arazlab ketar,
Otasining uyiga.*

Maniler – Laparlar.

Manilar yetti bo`g`inli to`rt misrali va asosan, a-a-b-a tarzida qofiyalanuvchi mustaqil she`rlardir²⁰. Ularning bir nechta turi mavjud:

1. Topishmoq manilar;
2. Maqol va iboralarni o`z ichiga olgan manilar;
3. Hizir Ilyos bayramida aytiladigan manilar;
4. Shaharlar haqida manilar;
5. Ramazon va soqchilar manilari;
6. Bayram manilari;
7. Qahva manilari.

Topishmoq manilardan namuna:

<i>Baharı haber verir</i>	<i>Bahordan xabar berar</i>
<i>Bülbüle neşe verir</i>	<i>Bulbulga nash`a berar</i>
<i>Bir renk entari giyer</i>	<i>Bir rangli ko`ylak kiyar</i>
<i>Bahçeler şan verir</i>	<i>Bog`larga chiroy berar. (gul)</i>

²⁰ Turkiya turk adabiyoti, Nevzat Ko`so`g`li, Feridun Alper, Emin Alper, Anqara, 2003

Maqol va iboralarni o'z ichiga olgan manilardan namuna:

<i>Açılmıştır arası</i>	<i>Ochilmishir orasi</i>
<i>Tükenmiştir parası</i>	<i>Tugamishdir moyanasi</i>
<i>Bıçak yarası geçer</i>	<i>Pichoq yarasi bitar,</i>
<i>Geçmeyen dil yarası</i>	<i>Bitmagay dil yarasi.</i>

2.2. Badiiy turlarga oid atamalarning semantik-struktur tahlili

Pyesa (fran. piece – bo'lak, qism) sahnada qo'yish uchun mo'ljallangan drammatik asar²¹. Ptesada harakat bo'ladi. Qahramonlar ham suhbatlashadi, ham harakat qiladi. Bir nacha kishi yig'ilib qilingan suhbatga dialog deyiladi. Ba'zan qahramonlar sahnada yolg'iz qolib gapiradilar. Bu nutqga monolog deyiladi. Sahnada asar qahramonlarining rolini ijro etuvchi kishilarga aktyor deyiladi.

Pyesada tasvir bo'lmaydi. Pyesada yozuvchi o'zining so'zlari bilan ishtirok etmaydi. Faqatgina pyesa qanday qo'yilishi lozimligi haqida ba'zi ko'rsatmalar berishi mumkin. Bu tavsiyalar qavs ichida yoziladi va va ular remark deyiladi. Remarkda hodisaning qayerda ro'y berganligi, qahramonlarning sahnaga chiqishlari, kirishlari turli-tuman harakatlari, pardaning ko'tarilib tushirilishi ko'rsatiladi. Pyesa bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Ularga parda yoki sahna deyiladi. Pardaga nisbatan tanaffuz, sahnaga – majlis ham deyiladi. Umumiy aytganda, pyesalar bir necha pardalardan iborat bo'ladi. Lekin bir pardalik pyesalar ham mavjud.

Drammatik asarlarning uch turi mavjud:

-trajedi (fr. tragedie) –tragediya. Mavzusi afsonalardan yoki tarixiy voqealardan olinadigan g'am-qayg'u bilan tugallanuvchi teatr asarlarining bir turi.

-komedi (fr. comédie) – komediya. Kulguli, kulguga sabab bo'luvchi voqea-hodisalarni tasvirlovchi sahna asari yoki film.

-dram (fr. drame) – drama. Sahnada qo'yilish uchun yozilgan asar, g'am-alam va ba'zan kulguli voqealarni aks ettiruvchi sahna asari yoki film.

Drammatik asarlar nasrda ham, nazmda ham yozilishi mumkin.

²¹ Edebî okuma kitabı, Rıza Mollof, 'Narodna prosveta' devlet neşriyatevi, Sofya 1957

Aziz Nesinnning ‘Yaqinroq keling’, ‘Bir chora ko`r, Met’, Haldun Tanerning ‘Kunning odami’, ‘Fazilat dorixonasi’, Behjat Nejatigilning ‘Yulduzlarga boqmoq’, ‘Tungi oshxona’, Tariq Bug`roning ‘Uch sahna’, ‘Oyoqqa turmoq istayman’, Nomiq Kamolning ‘Vatan yoxud Silistra’, ‘Bechora bola’, ‘Jaloliddin Xorazmshoh’ kabi darmalari mashhur.

Povest –qissa (ar. hikoya, sarguzasht). Povest bosh qahramon taqdiri vositasida u yoki bu jihatini o`rta epik shaklda rivoyaviy yo`l bilan aks ettiruvchi asar²². Povestda hikoyaga nisbatan qahramonning hayotiga oid bir qancha voqealar tasvirlanib, qahramonlar xarakteri batafsilroq yoritiladi. Shu bilan birga, povestda ishtirok etuvchi ikkinchi darajali qahramonlarning soni ham ko`proq bo`ladi.

Sevinch Chokumning ‘Mashina’, ‘Egik daraxtlar, Jengiz Dag`jining ‘Yurtini yo`qotgan odam’, ‘Qaytish’, Jenab Shahabeddingning ‘Haj yo`lida’, ‘Avrupa maktublari’ kabi ko`zga ko`ringan povestlar mavjud.

Hikoyalarda qahramonlar soni kam bo`ladi. Qissa hikoyaning keng ko`rinishdagi shaklidir. Shuning uchun qissani katta hikoya deb ham ataydilar.

Roman – badiiy asarlarning eng katta va murakkab shaklidir. Roman hikoya va qissaga o`xshaydi. Lekin romanda qahramonlar soni ko`p va ular bir qancha voqealarda ishtirok etadi. Bu hodisalar keng lavhalarda aks etadi va bir biriga bog`liq holda kechadi. Romanda davomiylik mavjud bo`lib, yillar va hayotdan olingan lavhalar butun murakkabligi va o`z o`rnida mufassalligi bilan bayon etiladi.

Romanda qahramonlarning xarakterlari juda batafsil yoritiladi. Qahramonlarning muayyan hayot sharoitlari va muhiti bilan birga alohida-alohida qarashlari, tushunchalari, his-tuyg`ulari, amallari, kurashlari, keng miqyosda tasvirlanadi. Natijada ular hayotdagi kabi tasavvur uyg`otadi va voqealar rivojida yo mag`lub bo`ladilar, yoki g`olib chiqadilar.

Romanda bir nechta qahramonlar bo`lishiga qaramay voqealar bosh qahramon bilan bog`liq holda kechadi. Romanning bir necha turlari mavjud:

- tarixiy roman;
- siyosiy roman;

²² Edebî okuma kitabı, Riza Mollof, ‘Narodna prosveta’ devlet neşriyatevi, Sofya 1957

- ishqiy roman;
- sarguzasht roman va boshqalar.

Roman bizga hayot haqida to'liq va batafsil ma'lumot berib, hayotni tushunishimizga yordam beradi.

Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi”, “Yashil kecha”, ‘Qon da`vosi’, Suat Darveshning “Fosforli Javriya”, Aziz Nesinning “Futbol qiroli”, Yavuz Bahodiro`g`lining “Xorazm” , Husayn Rahmi Gurpinarning ‘Kesilgan bosh’, ‘Qaroqchi inida’, Mehmet Raufning ‘Yosh qiz qalbi’, ‘So`nggi yulduz’, Holida Adib Adivarning ‘Qalb o`g`risi’, ‘Oqila xonim ko`chasi’, Rafiq Holid Qorayning ‘Istanbulning ichkarisi’, ‘Qorli tog`dagi otash’, romanlari bugungi turk adabiyotidagi yetuk romanlardan hisoblanadi.

Doston (fors. *destan* yoki *dāstān*) favqulotda qahramonlikni tasvirlovchi hajman katta va nazmiy shaklda yoziladigan adabiy tur²³. Juda ham harakatchan va boy bir hayot kechirgan turk urug`larining xilma-xil dostonlar yaratgani tabiiydir. Ammo ibtidosi mil.av davrlarga borib taqaladigan bu xalq ijodi namunalarining qog`ozga ko`chib, kunimizgacha yetib kelganlari juda ozdir. Bularning bir qismi eski chin manbalarida saqlanib qolgan. Bir qismi esa arab va fors manbalarida saqlangan. XIX asrdan e`tiboran esa bu dostonlarda kunimizgacha yetib kelganlari yevropalik tilshunos va turkiyalik tadqiqotchilar tomonidan xalq og`zidan yozib olingan va qog`ozga tushirilgan. Turklar islomni qabul etganlaridan so`ng ham dostonchilik an`analari davom etgan va turli turk jamoalari beqiyos darajada boy dostonlarni yaratganlar. Islomdan avvalgi turk dostonlari Alp Er To`nga, Shu, O`g`uzxon, Ko`kturklarning Ergenakon va Bo`zqurt dostonlari, shuningdek uyg`urlarning “Go`ch”, “Yaratilish” va “Turaysh” dostonlaridir.<sup>24</sup> Lekin epos ma`nosini katta hajmdagi asarlarga yoqutlar *alangho* (nazmiy qahramonlik she`ri, qahramonlarning hayotiy hiloyalari), qirg`izlar *komok* (qahramonlik dostonlar), musulmon turklar esa asosan *doston* nomini berganlar. Sab va irtegi so`zlari esa hikoya va qissa ma`nosida doston termini o`rnida qo`llanilgan. Islom madaniyati ta`sirida doston so`zi masnaviy,

²³ Ansiklopedi 3 tom

²⁴ Turkiya turk adabiyoti, Nevzat Ko`so`g`lu, Feridun Alper, Emin Alper, Anqara 2003

voqeanoma, tarix va boshqa turlar bilan turli xil voqealarga bag'ishlangan xalq she'riyati namunalarining nomi bo'lgan. Turk xalq og'zaki ijodiyotiga mansub bir qancha dostonlar mavjud. Masalan, "Göktürk destanı" (Ko'kk Turk dostoni), "Öğüz Kağan destanı" (O'g'uz xon dostoni), "Cengiz Han destanı" (Chingiz xon dostoni). Bundan tashqari Turk zamonaviy adabiyotida ham o'nlab mashhur dostonlar yaratilgan va yaratilyapti bunga Fozil Husni Dog'larjaning "Üç şehitler destanı" (Uch shahid haqida doston), "Kubilay destanı" (Xubilay dostoni), Nozim Hikmatning "Sınavna Kadısı oğlu Şeyh Badreddin destanı" (Simavna qozisining o'g'li Shayx Badriddin dostoni), Yahyo Kamol Beyatlining "Selimname" (Salimnoma)si, Bahchat Kemal Chag'larning "Battal Gazi destanı" (Battol G'ozı dostoni) kabi dostonlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hikaye – öykü (hikoya). Hikoya paydo bo'lganidan to bugungi kungacha uzluksiz yangilanib, o'z qoliplarini o'zgartirib shakllangan janrlardan biri hisoblanadi²⁵. Bu o'zgarishlar bir qator ta'riflarda ham o'z aksini topgan. Hikoya asrlar davomida o'zgarib zamonaviylashganidan keyin oldingi "haqiqat yoki haqiqatga yaqin voqealarni hikoya qiluvchi qisqa asar" kabi oddiy ta'rif bugunga kelib yanada mukammallashdi. Romanning paydo bo'lishi va adabiy janrlarning bir biridan ajratilishiga parallel ravishda hikoya ham shakl va mazmun jihatidan o'zgarishga yuz tutdi. Zamonlar o'tib, qisqa, kichik singari old nomlar bilan qo'llanila boshlandi. X.E. Bates fikricha, janrning adabiy janr sifatida ta'riflanishining sababi "qurilishidagi cheksiz elastiklikdir". Shu tarzda hikoya hajm jihatidan chegaralanib, romandan ajratiladi. Biroq turk adabiyotida hikoya bitta janr sifatida ta'riflanmasdan, oldinlari ham borligi isbotlangan va berilgan yetuk misollar asosida roman, ertak va fikra (hajviya) lardan farqlangan. Tanzimot davrida Sami Poshozoda Sezai ijodi ilk modern hikoya namunasi bo'lgan bo'lsa, Holid Ziyo uni yanada rivojlantirdi. Umar Sayfiddin hikoyalarida mustaqil janr sifatida qaror topdi. Keyinchalik esa Mamduh Shevket Esendal va Said Foiq Abasyanik singari yozuvchilarning qisqa hikoyalari bilan bu janr yanada taraqqiy topdi.

²⁵ 'Kutilmagan mehmon', Veli Savash Yelo'q, Poshshajon Kenjayeva, Toshkent, 2011

Hikoya janri borasida 1970-yillardan keyin bildirilgan sharhlarda mazkur janrning shakily xususiyatiga aniqlik kiritildi:

1. Ma`lum bir voqeaning og`zaki yoki yozma shaklda bayon etilishi.
2. Real yoki tasavvurdagi voqealarni bayon qilgan nasriy tur.
3. Hayotiy bo`lmagan voqea badiiy to`qima.

Bugungi turk adabiyotidagi Rafiq Holid Qorayning “Shaftolizor”, Umar Sayfiddinning “Rashq”, Ahmed Hamdi Tanpinarning “Arzрумlik Tahsin”, Sabohiddin Alining “Ovoz”, ‘Yangi dunyo’, Samat Og`ao`g`lining ‘Buyuk oila’, ‘Zurriyot’, Haldun Tanerning “Izniklik laylak”, Orhan Kamolning ‘Orqa ko`cha’, Orhan Kamolning “Lotoreya chiptasi”, Aziz Nesinning “Madaniyatning ehtiyot qismi”, Ferid Edguning “Kutilmagan mehmon” , Said Faik Abasyaniknikning ‘Samovar’, ‘Mahalla qahvasi’, hikoyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Struktura (lot. Structura – tuzilish, bog`lanish).

1. Muayyan narsalarning tuzilishi, qurilishi; tarkibiy qismlarning o`zaro bog`liqligi;
2. Obyektning yaxlitligi va aynan o`zligini anglatadigan, ya`ni tashqi va ichki o`zgarishlarda asosiy xususiyatlarini saqlab qoladigan barqaror aloqalari majmui.

She`riy san`atlar va vaznlarga oid adabiyotshunoslik terminlarining struktur tahlili

1	sodda terminlar	mubolag`a, tablig`, ig`roq, g`uluv, tashbih, tazod, tashxis, intoq, tanosub, ruju, istiora, kinoya, alliteratsiya, tarsi, tajnis, saj`, tajziya, tardid, mulamma, tavjih, talmih, tahakkum, tafriq, istidrok, tavsir, tamsil, tarix, muqobala, iqtibos, sukun, vatad, rukn, bahr, qofiya, raviy, hojib, radif, turoq, ritm, turkum, band
2	yasama terminlar	Benzetme
3	qo`shma so`z shaklidagi terminlar	laf-u nashr
4	so`z birikmasi shaklidagi terminlar	aruz vazni, barmoq vazni, sarbast vazni
5	ibora shaklidagi terminlar	tajohuli orifin

Xulosa

Shu sababli o`tmishda bo`lgani kabi keljakda ham, buyuk adabiyotchilar o`zlari yashagan jamiyatning tabiiy va eng kuchli madaniyat elchilari bo`lib qolaveradi.

Madaniy va adabiy aloqalarimiz til va tarix jabhasida ekanligidan kelib chiqib, shakllantirilishi va adabiy aloqalarni shakllantirish uchun ochiladigan ilk maydon – adabiyot bo`lishi kerak. Adabiy aloqaning to`xtab, qotib qolmasligining eng tabiiy va tez amalga oshadigan maydoni – adabiyot maydonidir. Ayniqsa, adabiyotning tilga bog`liq va tarixiy tajribani ham aks ettirgan bir san`at novdasi ekanligidan kelib chiqadigan bo`lsak, u eng avval nazarda tutilishi lozim bo`lgan madaniyat bo`lagidir.

Bitiruv malakaviy ishida hozirgi turk tilidagi adabiyotshunoslik terminlarining semantik-struktur tahlili ustida ish olib borildi. Bitiruv malakaviy ish kirish, asosiy qism (ikki bob) va xulosadan iborat.

Kirish qismida adabiyot, adabiyotshunoslik nazariyasi, badiiy so`z san`ti, adabiyotning jamiyat hayotidagi o`rni haqida va shuningdek, bitiruv malakaviy ishining o`rganilganlik darajasi, dolzarbligi borasida so`z yuritilgan.

Bitiruv malakaviy ishi ishining birinchi bobida Turk adabiyotshunosligidagi she`riy san`atlar va she`riy vaznlarining semantik-struktur tahliliga to`xtalib o`tildi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida Turk adabiyotshunosligidagi badiiy va she`riy turlarning semantik-struktur tahlili keltirildi.

Turk lirikasi janr va san`at shakllariga juda boy. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ularning asosiylarini ko`zdan kechirdik, xolos. Biz to`xtalib o`tgan poetik janrlarning ko`pchiligi aruz zaminida paydo bo`lgan va shakllangan. Ular mumtoz turk she`riyatida keng qo`llanilgan, ba`zi birlari (g`azal, ruboiy, tuyuq, qo`shiq, qasida va boshqalar) hozirgi zamon turk lirikasida ham an`anaviy janrlar sifatida ishlatilmoqda, biroq yangi zamon, yangi ijodiy metod taqozosi bilan an`anaviy poetik janrlar va shakllarning ichki tuzilishida, obrazlarida, tili va uslubida jiddiy o`zgarishlar yuz berdi. Ayni paytda, ularning shartli poetik alomatlari asosan saqlanib qoldi.

Turk lirikasida bir qancha poetik janrlar va ularning shakllarida o`xshashlik, mushtaraklik, sinkiretik holatlar kuzatildi. Masalan, g`azal va uning zaminida paydo

boʻlgan qitʼa, ruboiy, tuyuq, musammat, murabba kabi hajm jihatidan bir xil boʻlgan sheʼr shakllari oʻrtasida umumiylik, mushtaraklik yaqqol koʻzga tashlamdi. Yana shunday sheʼrlar ham borki, ular yo tuzilishi, yo qofiyalanish tartibi jihatidan bir-biriga benihoya yaqin turadi. Gʻazal bilan qasida oʻrtasida shu holat juda aniq seziladi. Mumtoz lirika janrlari, asosan, bayt va band tuzilishi, hajmi, qofiyalanish tartibi, baʼzilari vaznlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Odatda, misralar harakati, qofiya va vazn sheʼrning poetik shakllari uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Mumtoz poetik janrlarning yana bir xususiyati shundaki, ular doimo bir-biriga taʼsir oʻtkazib turgan. Mumtoz poeziyaning muayyan bir janrida yaratilgan asar hamisha ham sof bir janr doirasida chegaralanib qolavermagan. Chunki bir janr ichida koʻpincha boshqa janr va shakllarning unsurlari mavjud boʻlgan. Gʻazal, qitʼa, ruboiy, tuyuq, lugʻaz kabi shakl va usullarda yaratilishi shu hodisa (poetik janrlarning bir biriga payvandlashib ketishi)ning samarasidir. Bu xil asarlarning janrlarini ularda qaysi janrga xos alomatlar ustunlik qilishi hisobga olinadi yoxud ularda mujassamlashgan turli shakllarga xos sinkretik xususiyatlaridan kelib chiqib nomladi.

Bitiruv malakaviy ishini yakunlar ekanmiz, olib borgan kichik tadqiqot soʻnggida bu mavzu turk tilida dastlabki ish ekanligiga, hali koʻplab izlanishlar, tadqiqotlar talab qilishiga, oʻz yechimini kutayotgan muammolar koʻp ekanligiga guvoh boʻldik. Shu oʻrinda tilshunos olimlarimizdan birining fikrini keltirib oʻtish joiz : ” Terminologiya xuddi qizib turgan choʻgʻga oʻxshaydi agar kimki unga ehtiyotkorlik bilan yondoshmasa, barmoqlarini osongina kuydirib olishi mumkin”. Bundan koʻrinib turibdiki, bu soha mutaxassislaridan chuqur bilim, yuksak malaka va tinimsiz izlanishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Islom Karimov, Vatanimizni bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oily maqsadimiz, “Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor”, T., 2009,
2. Boboyev T., Adabiyotshunoslik asoslari, T., ‘O'zbekiston’2002
3. Salayev F., Qurboniyozov G., Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi, T., ‘Yangi asr avlodi’, 2010
4. Husayniy Atoulloh (fors tilidan Rustamov Alibek tarjimasi) Badoyi'u-s-sanoyi', Toshkent 1981
5. Hojiahmedov A., She'r san'atlarini bilasizmi? , Toshkent 2001
6. Matjon S., Sariyev Sh., O'zbek adabiyoti, Toshkent-2007
7. Veli Savash Yelo'q, Kenjayeva Poshshajon, ‘Kutilmagan mehmon’, Toshkent, 2011
8. Rustamov A., Aruz haqida suhbatlar, Toshkent-1979
9. Rahmonov V., ‘She'r san'atlari’, Toshkent-1972
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, jildlari, Toshkent-2004

Türk tilidagi foydalanilgan adabiyotlar:

11. Divan şiirinden seçmeler, Dr. Yusuf Çetindağ, İzmir 2005
12. Edebî okuma kitabı, Rıza Mollof, ‘Narodna prosveta’ devlet neşriyatevi, Sofya 1957
13. Türkiye türk adabiyoti, Nevzat Ko'so'g'li, Feridun Alper, Emin Alper, Anqara, 2003
14. Türkçe sözlük, Prof. Dr. Şükrü Haluk AKALIN..., Ankara-2005
15. Türk edebiyatında Hikaye ve Roman, Cevdet Kudret, Ankara- 1971
16. Türk edebiyatı tarihi, Agah Sırrı Levend, Ankara-1973

Internet saytlari

www.books.google.com

www.kitapzamani.zaman.com.tr

okoc@sakarya.edu.tr

www.kitapyurdu.com

www.sutunyayinlari.com

www.kitapkaynagi.com

www.idefix.com